

YAPONIYADA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA IJTIMOY PROFILAKTIKANING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI



Berdialiye Baxtiyor Erkinovich

O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti
boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Начальник Исследовательского
института криминологии
Республики Узбекистан,
доктор философии по
юридическим наукам (PhD)

Head of Research Institute of
Criminology of the Republic of
Uzbekistan, PhD in Law

Annotatsiya. Maqolada Yaponiya davlatida jinoyatchilikning oldini olish va ijtimoiy profilaktika sohasidagi zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Yaponiyada jinoyatchilikning past darajasini ta'minlovchi «Koban» tizimi, «Hogoshi» ko'ngillilar instituti va atrof-muhit dizayni orqali jinoyatchilikning oldini olish (CPTED) strategiyalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, 2022–2025-yillar oralig'ida Yaponiyadagi kriminogen vaziyatning transformatsiyasi, xususan, kiberjinoyatchilik va onlayn firibgarlikning o'sish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida Yaponiya tajribasidan O'zbekiston huquq-tartibot tizimi va ijtimoiy profilaktika amaliyotini takomillashtirishda foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Yaponiya, ijtimoiy profilaktika, Koban tizimi, Hogoshi, CPTED, kiberjinoyatchilik, raqamli firibgarlik, resotsializatsiya, kriminogen vaziyat, viktimologiya.

MODERN STRATEGIES OF SOCIAL PREVENTION IN PREVENTING CRIME IN JAPAN

Abstract. This article analyzes modern approaches to crime prevention and social prevention in Japan. The study reveals the essence of the “Koban” system, the “Hogoshi” volunteer institute, and the Crime Prevention Through Environmental Design (CPTED) strategies, which ensure Japan's low crime rate. Based on statistical data, the transformation of the crime situation in Japan between 2022 and 2025 is examined, specifically the growth trends in cybercrime and online fraud. The article concludes with scientific and practical proposals for utilizing the Japanese experience to improve the law enforcement system and social prevention practices in Uzbekistan.

Keywords: Japan, social prevention, Koban system, Hogoshi, CPTED, cybercrime, digital fraud, resocialization, criminogenic situation, victimology.

Yaponiyaning kriminologik siyosatida ijtimoiy profilaktikaning dolzarbligi, avvalo, «jazo muqarrarligi» tamoyili «ijtimoiy mas'uliyat» tushunchasi bilan uyg'unlash-tirilganligida namoyon bo'ladi. Zamonaviy dunyoda aksariyat davlatlar jinoyatchilikka qarshi kurashni faqat huquqni muhofaza qilish organlarining texnik imkoniyatlarini kengaytirish yoki sanksiyalarni kuchaytirish orqali hal qilishga intilmoqda. Biroq, Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikning oldini olishning eng samarali yo'li shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashdir. Ushbu yondashuvning dolzarbligi globallashuv va urbanizatsiya jarayonida insonlar o'rtasidagi begonalashuv ortib borayotgan bir sharoitda, jinoiy deviatsiyaning oldini oluvchi tabiiy ijtimoiy to'siqlarni qayta tiklash imkonini beradi.

Ijtimoiy profilaktikaning dolzarbligini asoslovchi navbatdagi muhim jihat – bu retsdiv jinoyatchilikka qarshi kurashda ko'ngilli probatsiya xodimlari [1] institutining yuqori samaradorligi. Bular davlatdan maosh olmaydigan, lekin jinoyat sodir etgan shaxslarning jamiyatga moslashishiga yordam beradigan nufuzli fuqarolardir. Hozirgi kunda Yaponiyada 47 000 dan ortiq ko'ngilli probatsiya xodimlari faoliyat yuritadi. Ular ko'chalarni patrul qilish, maktab o'quvchilarining xavfsizligini ta'minlash va hududda yot unsurlarning paydo bo'lishini nazorat qilish orqali politsiyaga bevosita ko'maklashadi. Qolaversa, Yaponiya penitensiar tizimida jazolashdan ko'ra qayta tarbiyalash va ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga asosiy urg'u beriladi. Shuningdek, ular sobiq mahkumlarni ish bilan ta'minlash va ularni ijtimoiy yakkalanib qolishining oldini olish orqali qayta jinoyat sodir etish xavfini keskin kamaytiradilar.

Professional bo'lmagan, ammo jamiyatda yuqori obro'ga ega bo'lgan fuqarolarning sobiq mahkumlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish jarayoniga jalb etilishi davlat uchun ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan manfaatlidir. Bu tizim mahkumni faqat jazolanuvchi obyekt sifatida emas, balki jamiyatning qayta tiklanishi mumkin bo'lgan a'zosi sifatida ko'rishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv jamiyatda ijtimoiy adolat tuyg'usini mustahkamlaydi va jinoyat sodir etgan shaxslarning qaytadan jinoyat yo'liga kirishini keskin kamaytiradi, bu esa har qanday huquqiy davlat uchun strategik ahamiyatga ega vazifadir.

Shuningdek, Yaponiyadagi «Koban» tizimi va atrof-muhit dizayni orqali jinoyatchilikning oldini olish (CPTED) strategiyalarining dolzarbligi ularning proaktiv xarakteri bilan belgilanadi. Ya'ni, profilaktika jinoyat sodir etilganidan keyin emas, balki uning sodir etilishi uchun imkon beruvchi sharoitlarni ildizi bilan yo'q qilishga qaratilgan. Mahalliy politsiyaning aholi bilan oilaviy darajadagi yaqin muloqoti va shaharsozlikda xavfsiz muhitni yaratish texnologiyalari jinoyatchilik determinantlarini jilovlashda yuqori natija beradi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda Yaponiya ushbu an'anaviy usullarni sun'iy intellekt va “Smart City” konsepsiyasi bilan boyitgan holda, ijtimoiy profilaktikaning eng zamonaviy va barqaror modelini taqdim etmoqda. Bu tizim politsiya va mahalliy aholi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Politsiya xodimlari nafaqat tartibni saqlaydilar, balki hududdagi oilalarning ijtimoiy ahvolidan xabardor bo'lib turadilar. Bu usul kriminologiyada “jamoatchilik politsiyasi” deb yuritilib, jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lgan muhitni oldindan sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.

Yapon jamiyatida ijtimoiy profilaktikaning psixologik jihati kuchli rivojlangan. Rut Benedikt va boshqa tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, yapon madaniyatida shaxsning xatti-harakati nafaqat qonun bilan, balki jamoatchilikning fikri bilan ham tartibga solinadi. Jinoyat sodir etish nafaqat shaxsning, balki uning oilasi va ijtimoiy guruhining sharmandaligi sifatida qabul qilinadi [2]. Bu esa kuchli determinant sifatida xizmat qilib, ijtimoiy tiyilish mexanizmini ishlatib yuboradi.

Mashhur yapon kriminologi Koichi Hamai o'zining tadqiqotlarida Yaponiyadagi jinoyatchilik darajasining pastligini nafaqat politsiya faoliyati, balki jamiyatdagi ijtimoiy istisno darajasining pastligi bilan izohlaydi. Hamaining fikricha, yapon jamiyatida jinoyat sodir etgan shaxsni tizimli ravishda yakkalab qo'ymaslik va uning qayta integratsiyasiga imkon berish jinoyatchilikning oldini olishdagi eng kuchli vositadir [3]. Bu qarash ko'plab g'arb olimlarining “jazo orqali tiyib turish” nazariyasiga zid keladi. Hamai jinoyatchilikka qarshi kurashda “qattiq qo'llik” siyosatining kuchayishi ijtimoiy ishonchga putur yetkazishi mumkinligini ta'kidlaydi va ijtimoiy profilaktikani birinchi o'ringa qo'yadi.

Bunga qiyosiy ravishda, olim Setsuo Miyazava yapon modelining “majburiy konformizm” jihatiga e'tibor qaratadi. Miyazavaning tadqiqotlarida ijtimoiy profilaktika faqatgina ko'ngilli yordam emas, balki shaxsga nisbatan kuchli ijtimoiy bosim mexanizmi ekanligi ilgari suriladi [4].

Uning fikricha, Yaponiyada jinoyatchilikning pastligi shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati va "uyat" hissining o'ta yuqoriligi natijasi bo'lib, bu individual erkinliklarning cheklanishi hisobiga amalga oshadi. Miyazava va Hamai qarashlarini solishtirganda, birinchisi tizimni ijtimoiy hamjihatlik mevasi deb ko'rsa, ikkinchisi uni qattiq ijtimoiy iyerarxiya va nazoratning mahsuli sifatida talqin etadi.

Boshqa bir tomondan, zamonaviy yapon kriminologiyasida Nobuo Komori kabi olimlar atrof-muhit kriminologiyasi (Environmental Criminology) [5] yo'nalishini rivojlantirmoqdalar. Ularning tadqiqotlarida ijtimoiy omillardan ko'ra, jinoyat sodir etish imkoniyatini kamaytiruvchi jismoniy muhitning roli yuqori baholanadi. Bunda jamoat joylarining ko'rinuvchanligi, "begonalar nazorati" va arxitekturaviy yechimlar orqali profilaktika qilishga urg'u beriladi. Ushbu yondashuv an'anaviy "Koban" tizimining texnik davomi bo'lib, unda inson omili texnologiya bilan almashmoqda. Komorining qarashlari Hamaining ijtimoiy bag'rikenglik g'oyalaridan farq qilib, ko'proq jinoiy vaziyatni texnik cheklashga yo'naltirilgan.

Qisqa qilib aytganda, yapon olimlarining tadqiqotlarida ijtimoiy profilaktikaning ikkita asosiy ustuni ko'zga tashlanadi: biri – insonga yo'naltirilgan resotsializatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'lsa, ikkinchisi – jamiyatning shaxs ustidan qattiq nazorati va xavfsiz muhit dizaynidir. Ushbu yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Yaponiyadagi past jinoyatchilik fenomeni faqatgina bitta omil emas, balki madaniy an'analar, ijtimoiy bosim va zamonaviy texnik nazoratning murakkab va muvozanatlashgan tizimi natijasidir.

Shu bilan birga, Yaponiyada CPTED (Crime Prevention Through Environmental Design) strategiyasining zamonaviy bosqichi shunchaki texnik vositalarni o'rnatish emas, balki arxitektura, ijtimoiy psixologiya va yuqori texnologiyalarning vertikal integratsiyasini ifodalaydi. Ushbu yondashuvning dolzarbligi shundaki, u jinoyatchilikka qarshi kurashda inson omiliga bo'lgan yuklamani kamaytirib, muhitning o'zini himoyalovchi tizimga aylantiradi. Yaponiyadagi mazkur CPTED strategiyasining amaliy qo'llanilishi va uning ilmiy-texnik asoslari quyidagi muhim yo'nalishlar orqali namoyon bo'ladi:

1. *Tabiiy kuzatuv va ko'rinuvchanlikni tashkil etish.* Yapon shaharsozligida ko'rinmas burchaklarni yo'qotish konsepsiyasi ustuvor hisoblanadi. Bunda nafaqat ko'chalarni yoritish, balki binolarning joylashuvi, devorlarning balandligi va hatto manzarali daraxtlarning shakli ham atrofni to'liq kuzatish imkonini beradigan qilib loyihalashtiriladi. Olimlarning ta'kidlashicha, jinoyatchi uchun eng katta to'siq – bu uning harakatlari norasmiy kuzatuvchilar tomonidan ko'rinib qolish ehtimolining yuqoriligi.

2. *Sun'iy intellekt va intellektual video-analitika.* "Aqlli shahar" konsepsiyasi doirasida Yaponiyaning Fukuoka va Tokio kabi yirik megapolislarida sun'iy intellekt (AI) bilan jihozlangan kameralar tizimi keng joriy etilgan [6]. Ushbu tizimlar shunchaki tasvirni yozib olmaydi, balki insonning atipik harakatlarini, masalan, bir joyda uzoq vaqt turib qolish, keskin harakatlar yoki yugurishini aniqlab, real vaqt rejimida yaqin atrofdagi politsiya patruliga signal yuboradi. Bu profilaktikaning vaziyatli modeli bo'lib, jinoyat sodir etilgunga qadar bo'lgan bosqichda uning oldini olishga xizmat qiladi.

3. *Hududiylik va ijtimoiy daxldorlik tuyg'usini shakllantirish.* CPTEDning Yaponiyaga xos jihati – bu hudud egasi tuyg'usini kuchaytirish. Jamoat joylari shunday loyihalashtiriladiki, u yerga kelgan har bir shaxs o'zini nazorat ostidagi va begonalar e'tiboridagi hududda his qiladi. Masalan, turar-joy dahalarida ochiq maydonlar va bolalar maydonchalarining uy derazalariga ro'para qilib qurilishi tabiiy qo'riqlash tizimini yaratadi. Bu esa ijtimoiy profilaktikaning hushyor qo'shnichilik tamoyilini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

4. *Raqamli profilaktika va Kiber-CPTED [7].* Hozirda Yaponiyada faqat jismoniy emas, balki raqamli muhitda ham xavfsiz dizayn yaratish masalasi ilmiy tadqiqotlar markazida turibdi. Shahar ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga «xavfli hududlar» xaritasini onlayn taqdim etish, xavfsiz yo'nalishlarni ko'rsatish kabi usullar CPTEDning raqamli ko'rinishi sifatida baholanmoqda.

Xullas, Yaponiyada texnologik va ekologik dizayn usullari jinoyatchilikning oldini olishda inson omilisiz raqamli nazorat tizimini kuchaytirmoqda. Bu esa politsiya kuchlarini tejash va aholida xavfsizlik hissini oshirishda yuqori samara bermoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, bunday tizim inson huquqlari va maxfiylik o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, jamiyatda jinoyat sodir etish uchun imkoniyat qoldirmaslikka qaratilgan.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy profilaktika faqat huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi kerak. U jamiyatning madaniy qadriyatlari, mahalliy hamjamiyatning faolligi va zamonaviy texnologiyalarning sinteziga asoslanishi lozim. Ushbu model «davlat – jamiyat – fuqaro» zanjirining mustahkamligi jinoyatchilikka qarshi eng samarali qalqon ekanligini isbotlamoqda.

Shu sababli zamonaviy kriminologiyada yapon fenomeni alohida o'rin egallab, urbanizatsiya, yuqori texnologik taraqqiyot va aholi zichligining yuqoriligi, odatda, jinoyatchilikning o'sishiga olib keladigan omillar hisoblansa-da, davlat bu qoidaga mutlaqo zid bo'lgan amaliyotni namoyish etib kelayotgani ta'kidlanadi. Xalqaro tinchlik indeksi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jinoyatchilik va odil sudlov bo'yicha boshqarmasi hisobotlariga ko'ra, Yaponiya muntazam ravishda og'ir jinoyatlar, xususan, qotillik va talonchilik eng kam sodir etiladigan davlatlar qatorida yetakchilik qiladi [8]. Bunday ko'rsatkichga erishishning asosiy sababi faqatgina jazoning muqarrarliligi emas, balki jamiyatda shakllangan kuchli ijtimoiy nazorat va profilaktika institutlarining samarali faoliyati hisoblanadi.

Yaponiyada umumiy jinoyatchilik darajasi past bo'lishiga qaramay, jamiyatning demografik va texnologik o'zgarishlari natijasida kriminogen vaziyat muayyan transformatsiyaga uchramoqda. So'nggi o'n yilliklar ichida an'anaviy ko'cha jinoyatlari va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar keskin qisqargan. Biroq, Yaponiya Adliya vazirligining har yili e'lon qilinadigan White Paper on Crime ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, mamlakatda yangi turdagi kriminogen muammolar yuzaga chiqmoqda [9].

Shunday muammolardan eng dolzarbi keksa yoshdagi fuqarolar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlardir. Aholining tez qarishi va yolg'izlik muammosi tufayli ba'zi nafaqaxo'rlar qamoqxonalardagi bepul oziq-ovqat va tibbiy xizmatdan, eng muhimi, ijtimoiy muloqotdan umid qilib, do'konlardan mayda o'g'rilik qilishga murojaat qilmoqdalar. Bu holat kriminologiyada iqtisodiy emas, balki sof ijtimoiy-ruhiy motivlarga asoslangan deviant xulq-atvor sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, kiberjinoyatchilik va firibgarlik, ayniqsa, telefon orqali keksalarni aldash holatlarining ortishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, tarixan Yaponiya kriminal dunyosining asosi bo'lgan uyushgan jinoiy guruhlar (Yakudza) faoliyati [10] hukumat tomonidan qabul qilingan keskin qonunlar va moliyaviy cheklovlar natijasida sezilarli darajada zaiflashdi va ularning a'zolari soni tarixdagi eng past ko'rsatkichga tushdi.

Shu bois Yaponiyaning mantiqiy profilaktikasi – mahalliy jamoalar bilan tizimli muloqot, politsiya xodimlarining joylarda doimiy bo'lishi va ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiya – samarali hisoblansa-da, raqamli jinoyatchilik va yoshlar o'rtasidagi yangi turdagi jinoyatlar uchun qo'shimcha strategik choralar talab etiladi. Masalan, kiberjinoyatchilikka qarshi maxsus profilaktik dasturlar yaratish, yoshlar o'rtasida Internet xavfsizligini targ'ib qilish, onlayn firibgarliklar va yolg'on ish takliflariga qarshi ma'rifiy aksiyalar. Ayniqsa, yoshlar siyosati va ta'lim integratsiyasi:

maktab va oila hamkorligida yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka moyillikni kamaytirish uchun tarbiyaviy dasturlarni rivojlantirish kerakligini ko'rsatmoqda.

2024–2025-yillarga kelib Yaponiyada «maxsus firibgarlik» va kiberhujumlar soni rekord darajalarni yangiladi. 2025-yilgi kriminologik hisobotlarga ko'ra, yillik zarar miqdori bir necha yuz milliard iyenani tashkil etib, hujumlarning muvaffaqiyat darajasi ortgan. Bu o'sishning asosiy drayveri sifatida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari yordamida ovozni soxtalashtirish va fishing hujumlarining haddan tashqari individuallashtirilgani ko'rsatilmoqda. Olimlar buni jinoyatchilikning “jismoniy makondan raqamli makonga migratsiyasi” deb atamoqdalar.

Ushbu tahdidlarga javoban, 2025-yilda Yaponiya hukumati ijtimoiy profilaktikaga mutlaqo yangi texnik va ma'muriy usullarni joriy etdi. So'nggi yillarda bankomatlar (ATM) yonida uyali telefondan foydalanishni taqiqlovchi sun'iy intellektli kuzatuv kameralari o'rnatildi. Agar tizim keksa yoshli fuqaroning telefonda gaplashib pul o'tkazayotganini aniqlasa, tranzaksiyani avtomatik ravishda to'xtatadi. Shuningdek, uyali aloqa operatorlari bilan hamkorlikda xalqaro yoki shubhali raqamlardan kelayotgan firibgarlik qo'ng'iroqlarini tarmoq darajasida bloklash tizimi ishga tushirildi.

Mazkur holatning O'zbekiston uchun aktualigi 2022-yildagi 21.2 foizlik o'sish shunchaki vaqtinchalik ko'rsatkich emas, balki Yaponiya jinoyatchilik tarkibining tubdan o'zgarishidan darak beruvchi signali edi. 2025-yil holatiga ko'ra, Yaponiya ko'chalari dunyodagi eng xavfsiz makon bo'lib qolayotgan bir paytda, uning kibermakoni shiddatli kurash maydoniga aylandi.

Ushbu tajriba raqamlashtirish jarayoni tezlashayotgan O'zbekiston uchun juda muhim darsdir: umumiy jinoyatchilik (o'g'rilik, bezorilik)ning kamayishi xotirjamlikka asos bo'la olmaydi; asosiy e'tibor va profilaktika kuchlari tezkorlik bilan aholining raqamli va viktimologik madaniyatini oshirishga, kiberhujumlardan himoyalovchi proaktiv SI (AI) tizimlarini yaratishga yo'naltirilishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Yaponiyada kriminogen vaziyatning barqarorligi va past ko'rsatkichlari faqatgina iqtisodiy farovonlik yoki politsiyaning texnik jihozlangani bilan emas, balki jamiyatdagi yuksak axloqiy me'yorlar, kuchli ijtimoiy nazorat va politsiya-fuqaro hamkorligining mukammal tizimi bilan izohlanadi. Garchi bugungi kunda jinoyatchilik va kibermakon bilan bog'liq yangi chaqiriqlar paydo bo'layotgan bo'lsa-da, Yaponiyaning ijtimoiy profilaktika modeli boshqa mamlakatlarning jinoyatchilikning oldini olish siyosatini shakllantirishda muhim tajriba manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yaponiyaning jinoyatchilikka qarshi kurash va ijtimoiy profilaktika tizimi o'zining barqarorligi va insonparvarligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda ijtimoiy profilaktikani tizimli isloh qilishda Yaponiya tajribasidan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Profilaktika inspektori faoliyatini “Koban” modeli asosida isloh qilish. Yaponiyaning “Koban” tizimi politsiyaning aholi bilan eng yaqin va doimiy aloqasini ta'minlaydi. O'zbekistondagi mahalla huquq-tartibot maskanlarini faqat jinoyatni ro'yxatga oluvchi emas, balki aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi va oiladagi muammolarni erta aniqlovchi markazlarga aylantirish lozim. Profilaktika inspektorlarining xizmat vazifalariga hududdagi har bir xonadon bilan doimiy va norasmiy muloqot o'rnatish, masalan, “uyma-uy” tizimi majburiyatini kuchaytirish. Bunda asosiy e'tibor jazolashga emas, balki aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish orqali jinoyatning oldini olishga qaratiladi.

2. “Hogoshi” tipidagi jamoatchilik nazorati institutini joriy etish. Yaponiyada probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ko'ngilli fuqarolar ishlaydi. O'zbekistonda ham mahallalardagi obro'li nuroniylar, ziyolilar va tadbirkorlardan iborat “Jamoatchilik probatsiyasi” guruhlarini tashkil etish mumkin. Sobiq mahkumlarni jamiyatga qaytarish jarayonini faqat IIV zimmasiga yuklamasdan,

mahalla faollariga biriktirish zarur. Jinoyat sodir etgan shaxsning bandligini ta'minlagan va uni qayta jinoyat yo'lidan qaytargan mahalla vakillarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

3. “Xavfsiz shahar” loyihasini CPTED bilan boyitish. Yaponiyada jinoyatchilikka qarshi kurash arxitektura va shaharsozlik bilan uyg'unlashgan. O'zbekistonning yangi qurilayotgan mas-sivlari va “Smart City” loyihalarida jinoyat uchun qulay muhitni yo'qotish strategiyasidan foydalanish zarur. Yangi turar-joy majmualarini loyihalashda “ko'rinmas hududlar”ni kamaytirish, ko'chalarni yoritish standartlarini qayta ko'rib chiqish va jamoat joylarida tabiiy kuzatuv imkoniyatini, masalan, past devorlar, shaffof to'siqlarini oshirish bo'yicha majburiy normalarni joriy etish kerak.

4. Maktablarda “Axloq va huquqiy madaniyat” profilaktikasini kuchaytirish. Yapon ta'lim tizimida bolalarga kichik yoshidan “jamiyat oldidagi mas'uliyat” va “uyat” tushunchalari singdiriladi. Bu ichki tiyilish mexanizmini ishlatib yuboradi. Maktab dasturlariga jinoyatchilikning huquqiy oqibatlaridan tashqari, uning ijtimoiy va axloqiy zararini yorituvchi psixologik treninglarni kiritish kerak. Jinoyatchilikka qarshi kurashni “qo'rquv” ustiga emas, balki “hurmat va mas'uliyat” ustiga qurish zarur.

5. Viktimologik profilaktika va raqamli xavfsizlik. Yaponiyada fuqarolarni jinoyat qurboni bo'lib qolmaslikka o'rgatish tizimi juda kuchli. Aholining, ayniqsa, keksalar va yoshlarning kiberjinoyatchilik va firibgarlik qurboni bo'lishining oldini olish uchun maxsus mobil ilovalarni rivojlantirish kerak. Ushbu ilovalar orqali fuqarolarga real vaqt rejimida xavfli hududlar yoki yangi turdagi firibgarliklar haqida xabar berib turish tizimini yo'lga qo'yish ijobiy natija beradi.

Shuningdek, tahlil asosida profilaktika choralari: onlayn va raqamli jinoyatchilikni prognozlash uchun ma'lumot tahlili va razvedka tizimlarini joriy etish zarur. Jamoatchilik bilan esa hamkorlikni yangi platformada kengaytirish: ko'banlar va mahalliy jamoat institutlari bilan raqamli muloqot kanallarini faollashtirish (masalan, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn chatlar, mobil ilovani qo'llash). Bu takliflar nafaqat Yaponiya uchun, balki boshqa rivojlanayotgan davlatlar va milliy profilaktika siyosati uchun ham muhim ilmiy xulosa hisoblanadi.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikni politsiya sonini oshirish bilan emas, balki jamiyatning ichki immunitetini kuchaytirish orqali yengish mumkin. O'zbekiston uchun eng muhim qadam – profilaktikani huquqiy sohadan ijtimoiy-ma'naviy sohaga ko'chirish. Bu masala kundankunga dolzarblashib bormoqda.

Foydalanilgan manbalar / References

1. National Police Agency of Japan. «White Paper on Police 2023:Community Policing and Crime Prevention». Tokyo, 2023.
2. Benedict, R. (1946). «The Chrysanthemum and the Sword: Patterns of Japanese Culture». Houghton Mifflin.
3. Hamai, K. (2018). «Crime Prevention and Criminal Justice in Japan: The Myth of the 'Safe Society'». Asian Journal of Criminology.
4. Miyazawa, S. (1992). «Policing in Japan: A Study on Making Crime». State University of New York Press.
5. Komori, N. (2020). «Crime Prevention Through Environmental Design in the Japanese Context». Journal of Japanese Criminology.
6. Tsushima, M. (2022). «The Evolution of CPTED in Japan: From Physical Design to AI-Powered Surveillance». Japanese Journal of Sociological Criminology.
7. National Institute of Information and Communications Technology (NICT). «Annual Report on Smart City Security and Social Safety». Tokyo (2023).
8. Global Peace Index. (2023). Vision of Humanity: Institute for Economics & Peace.
9. Ministry of Justice, Japan. (2022). White Paper on Crime 2022.
10. National Police Agency of Japan. (2022). White Paper on Police 2022: Anti-Boryokudan (Yakuza) Measures.
11. Bayley, D. H. (1991). Forces of Order: Policing Modern Japan.